

## RASMIY MATNLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

**Dildora MIRVALIYEVA,**

*O‘zMU Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrasida o‘qituvchisi*

[dildoramirvalieva07@gmail.com](mailto:dildoramirvalieva07@gmail.com)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20677432>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada rasmiy matnlarning lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Rasmiy uslubga xos bo‘lgan aniqlik, lo‘ndalik, mantiqiylik va standartlashganlik kabi belgilar yoritiladi. Shuningdek, rasmiy matnlarda qo‘llaniladigan leksik birliklar, terminlar, qolipli iboralar hamda grammatik vositalarning o‘ziga xos jihatlari ko‘rib chiqiladi. Rasmiy hujjatlarning tuzilishi, uslubiy talablari va nutq me‘yorlariga rioya etish masalalari ham muhim jihat sifatida ochib beriladi. Ushbu maqolada rasmiy yozishmalar va hujjatlarni to‘g‘ri tuzish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** rasmiy uslub, lingvistik xususiyatlar, rasmiy matn, aniqlik, lo‘ndalik, mantiqiylik, terminologiya, qolipli iboralar, grammatik vositalar, hujjat tili, uslubiy me‘yorlar.

**Аннотация.** В данной статье анализируются лингвистические особенности официальных текстов. Освещаются такие черты, как точность, лаконичность, логичность и стандартизация, характерные для официального стиля. Также рассматриваются особенности лексических единиц, терминов, шаблонных выражений и грамматических средств, используемых в официальных текстах. В качестве важных аспектов также раскрываются вопросы структуры официальных документов, стилистических требований и соблюдения речевых норм. Данная статья служит формированию навыков правильного составления официальной переписки и документов.

**Ключевые слова:** официальный стиль, лингвистические особенности, официальный текст, точность, лаконичность, логичность, терминология, шаблонные выражения, грамматические средства, язык документа, стилистические нормы.

**Annotation.** This article analyzes the linguistic features of official texts. Characteristics such as clarity, conciseness, logic, and standardization characteristic of the formal style are highlighted. It also examines the specific aspects of lexical units, terms, stereotypical expressions, and grammatical means used in official texts. The issues of the structure of official documents, stylistic requirements and compliance with speech norms are also revealed as an important aspect. This article serves to develop skills in correctly drafting official correspondence and documents.

**Key words:** official style, linguistic features, official text, clarity, conciseness, logic, terminology, stereotypical expressions, grammatical means, document language, stylistic norms.

Lingvistika termini Yevropa mamlakatlari, jumladan ingliz, fransuz, nemis, ispan, rus va boshqa tillarda keng qo‘llanilib, til haqidagi fan ma‘nosini anglatadi. Mazkur atama lotincha *lingua* so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “til” degan ma‘noni bildiradi. O‘zbek tilida uning muqobili sifatida “tilshunoslik” termini ishlatiladi. Har ikkala atama bir xil tushunchani ifodalaydi va o‘zaro sinonim sifatida qo‘llanadi.

Lingvistika murakkab ijtimoiy hodisa bo‘lgan tilni yaxlit tizim sifatida o‘rganadi. Til insoniyat jamiyatining asosiy aloqa vositasi bo‘lib, u nafaqat muloqot quroli, balki



milliy tafakkur, madaniyat va tarixning ham ifodachisidir. Shu sababli tilni o‘rganish bir yoqlama emas, balki turli ilmiy yondashuvlar asosida amalga oshiriladi. Tilning ko‘p qirrali tabiati uni har tomonlama tadqiq qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Rasmiy matnlar davlat boshqaruvi, huquqiy munosabatlar, tashkilotlararo yozishmalar va xizmat doirasidagi muloqot jarayonida qo‘llaniladigan yozma nutq shaklidir. Bunday matnlar aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, axborotni tushunarli, ixcham va bir ma‘noli tarzda yetkazishga xizmat qiladi. Rasmiy uslubdagi matnlar hissiylikdan xoli, mantiqiy izchillik va qat‘iy me‘yorlarga asoslanganligi bilan ajralib turadi [5].

Rasmiy matnlarning eng muhim lingvistik xususiyatlaridan biri — aniqlik va lo‘ndalikdir. Ularda ortiqcha tasviriy vositalar, ko‘chma ma‘noli birliklar yoki badiiy ifodalar deyarli qo‘llanilmaydi. Har bir jumla muayyan huquqiy yoki ma‘muriy mazmunni ifodalashga qaratiladi. So‘z tanlashda noaniqlikka yo‘l qo‘yilmaydi, terminlar esa o‘zining aniq va qat‘iy ma‘nosida ishlatiladi.

Leksik jihatdan rasmiy matnlar ijtimoiy-siyosiy va huquqiy terminlarga boy bo‘ladi. Masalan, “qaror”, “farmon”, “buyruq”, “ariza”, “ma‘lumotnoma”, “shartnoma”, “nizom” kabi birliklar rasmiy uslubning asosiy leksik qatlamini tashkil etadi. Shuningdek, qoliplashgan iboralar va standart nutq formulalari keng qo‘llanadi: “mazkur qarorga asosan”, “belgilangan tartibda”, “yuqoridagilardan kelib chiqib”, “nazorat zimmasiga yuklatilsin” va hokazo[1].

Morfologik jihatdan rasmiy matnlarda fe‘llarning buyruq-istak mayli shakllari, majhul nisbat, shuningdek, otlashgan fe‘llar ko‘p qo‘llanadi. Masalan, “tasdiqlansin”, “amalga oshirilsin”, “ta‘minlansin” kabi shakllar rasmiy uslubga xosdir. Bundan tashqari, harakat nomi shakllari (“bajarish”, “ta‘minlash”, “amalga oshirish”) keng ishlatiladi. Bu esa matnda jarayonni umumlashtirib, shaxsga bog‘lamagan holda ifodalash imkonini beradi.

Sintaktik jihatdan rasmiy matnlar murakkab tuzilmalar bilan xarakterlanadi. Ko‘pincha qo‘shma gaplar, ayniqsa ergash gapli qo‘shma gaplar qo‘llanadi. Sabab, shart, maqsad va natija munosabatlarini ifodalovchi konstruktsiyalar keng uchraydi. Jumladlarda so‘z tartibi odatda me‘yoriy va qat‘iy bo‘lib, grammatik qoidalarga to‘liq amal qilinadi.

Rasmiy matnlarda shaxsiylikdan qochish tendensiyasi kuchli bo‘ladi. Birinchi va ikkinchi shaxs shakllari kam qo‘llanadi, o‘rniga uchinchi shaxs yoki majhul nisbat ishlatiladi. Bu esa matnga obyektivlik va betaraflik tusini beradi. Masalan, “men buyuraman” o‘rniga “buyuriladi”, “qaror qilindi” kabi shakllar qo‘llanadi.



Uslubiy jihatdan rasmiy matnlar standartlashgan va qoliplashgan xarakterga ega. Hujjatlarning tuzilishi oldindan belgilangan andozalar asosida shakllantiriladi: sarlavha, sana, raqam, matn qismi, imzo va muhr kabi rekvizitlar qat’iy tartibda joylashtiriladi. Til birliklarining takror qo‘llanishi hujjatning aniqligi va rasmiylikini ta’minlaydi.

Rasmiy matnlarning yana bir muhim xususiyati — mantiqiy izchillik va strukturaviy yaxlitlikdir. Har bir fikr oldingi va keyingi jumlar bilan mazmunan bog‘langan bo‘ladi. Matn ichida paragraf va bandlarga bo‘lish keng qo‘llanadi, bu esa axborotni tizimli ravishda qabul qilishni osonlashtiradi.

Shuningdek, rasmiy matnlarda emotsional-ekspressiv vositalar deyarli ishlatilmaydi. Undov gaplar, so‘roq gaplar, obrazli tasvirlar uchramaydi. Nutqning bunday xolis va neytral bo‘lishi hujjatning huquqiy kuchini va ishonchligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, rasmiy matnlarning lingvistik xususiyatlari aniqlik, lo‘ndalik, standartlashganlik, terminologik boylik, grammatik me’yorlarga qat’iy rioya qilish va obyektivlik kabi belgilar bilan tavsiflanadi. Ushbu xususiyatlar rasmiy uslubni boshqa funksional uslublardan ajratib turadi hamda hujjat aylanishi jarayonida samarali va tushunarli muloqotni ta’minlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Aminov M va boshq. Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo‘llanma. –T.: “O‘zbekiston nashriyoti” DUK, 2021. – 528 b.
2. Mahmudov N. va b. Davlat tilida ish yuritish (9-nashri).– Toshkent, 2020. –528 b.
3. Taxirov Z.T. O‘zbek tilining amaliy uslubiyati. – Toshkent, 2019. – 200 b.
4. Yo‘ldoshev B. Matn lingvistikasi asoslari. Toshkent, 2018. — 220 b.
5. Шайхисламов Н. ТРУДНОСТИ СИНТАКСИЧЕСКОГО АНАЛИЗА: ЗАГАДКИ ИНФИНИТИВА. Academic research in educational sciences, 2020 .